

**“HOZIRGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA  
JISMONIY TARBIYA VA SPORT  
MASHG'ULOTLARINI TASHKIL  
QILISHNING ISTIQBOLLARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”**

**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLARI**



**2022 yil 29 aprel**

**BUXORO**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

**"HOZIRGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA JISMONIY  
TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINI TASHKIL  
QILISHNING ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA  
YECHIMLAR"**

**ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ЗАНЯТИЙ ПО  
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛТУРЕ И СПОРТУ НА  
СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И  
РЕШЕНИЯ**

**PROSPECTS OF ORGANIZATION OF PHYSICAL  
EDUCATION AND SPORTS: PROBLEMS AND  
SOLUTIONS**

Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman

2022 yil 28-29 aprel

Buxoro - 2022

“Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili” ga bag’ishlangan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 martdagisi 101- son farmoyishiga asosan Buxoro davlat universitetida xalqaro hamkorlar ishtirokida 202 yil 28-29 aprel kunlari “Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy retsenziyalangan onlaysenkonferensiya o’tkaziladi.

**Anjumanning maqsadi:** Yosh avlodning harakat faolligini optimallashtirish muammolarini hal etishning yangi yo’llarini izlash, ularning jismoniy tayyorgarligi hamda jismoniy tarbiyasi jarayoniga yangi shakllar va metodlarni joriy qilish bobida metodologik va uslubiy sharoitlarini o’rganish.

### Anjumanning tashkiliy qo’mitasi: DASTURIY QO’MITA

|    |                |  |
|----|----------------|--|
| 1  | O.X.Xamidov    | BuxDU rektori, rais  |
| 2  | O.S.Qahhorov   | BuxDU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo’yicha prorektor, rais muovimi                             |
| 3  | B.B.Ma’murov   | Jismoniy madaniyat fakulteti dekanı, a’zo  |
| 4  | M.J.Abdullaev  | BuxDU pedagogika instituti jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedra mudiri.             |
| 5  | R.S.Shukurov   | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи mudiri, a’zo                                 |
| 6  | A.E.Sattorov   | Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasи mudiri, a’zo                                    |
| 7  | R.X.Kadirov    | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи professori, a’zo                             |
| 8  | I.I.Saidov     | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD), a’zo             |
| 9  | X.N.Xakimov    | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи dotsenti p.f.b.f.d. (PhD), a’zo              |
| 10 | A.Sh.Inoyatov  | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti o’qituvchisi kafedrasи dotsenti p.f.b.f.d. (PhD), a’zo |
| 11 | F.B.Muzaffarov | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи katta o’qituvchisi p.f.b.f.d. (PhD), a’zo    |
| 12 | R.S.Baymuradov | Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasи dotsenti, a’zo                                  |
| 13 | Ya.Z.Fayziev   | Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasи dotsenti, kotib                                 |

### II TASHKILIY QO’MITA

|    |                |   |
|----|----------------|---|
| 1  | B.B.Ma’murov   | Jismoniy madaniyat fakulteti dekanı, a’zo                                     |
| 2  | S.Q.Qaxxorov   | BuxDU xodimlar va talabalar kasaba uyushmasi raisi, a’zo                      |
| 3  | U.U.Rashidov   | BuxDU moliya va iqtisodiyot ishlari bo’yicha prorektor, a’zo                  |
| 4  | G.T.Zaripov    | BuxDU I va IPKT bo’limi boshlig’i, a’zo                                       |
| 5  | R.S.Shukurov   | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи mudiri, a’zo            |
| 6  | A.E.Sattorov   | Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasи mudiri, a’zo               |
| 7  | Q.P.Arslonov   | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи professori, a’zo        |
| 8  | G.M.Salimov    | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи professori, a’zo        |
| 9  | M.M.To’raev    | Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrasи dotsenti, a’zo          |
| 10 | R.R.Raxmonov   | “Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasи” dotsenti, a’zo           |
| 11 | O.A.Farmonov   | “Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasи” dotsenti, a’zo           |
| 12 | F.A.Narzullaev | “Fakultetlararo jismoniy tarbiya va sport kafedrasи” katta o’qituvchisi, a’zo |

Barcha ma’ruza tezislari (maqolalar) tahririyat tomonidan anonimlashtirilgan holatda tekshiriladi va tekshiruvdan ijobiy o’tgan ma’ruza tezislari nashr etiladi hamda har bir muallifga elektron SERTIFIKAT beriladi. Ma’ruza tezislari berilgan ma’lumot uchun mualliflarning o’zlarini javobgar hisoblanishadi. Konferensiya materiallari to’plamini 2022 yil 15 may kunidan boshlab <https://interscience.uz> rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin.

Konferensiya to’plamida nashr etilgan ilmiy tezislari (maqolalar) GOOGLE SCHOLAR, CROSSREF xalqaro bazasida indeksatsiyalanadi, har biriga alohida [Crossref DOI](#) raqam beriladi.

Mazkur ilmiy amaliy-anjuman konferensiya professor-o’qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilar jismoniy tarbiya va sport yo’nalishida o’z ilmiy izlanishlari natijasida tayyorlangan ma’ruza tezislari (maqolalar) bilan qatnashadi.

Bolalar va o'smirlar sport maktablarining boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida  
yosh voleybolchilarni tayyorgarligini boshqarish

**E.Z.Nurmatov JDPI o'qituvchi**

**SH.Nazarov JDPI 2-bosqich magistr**

Jismonan va ma'nан barkamol avlodni tarbiyalashda muhim omil bo'lgan jismoniy tarbiya jarayoni va uning samarali shakli bo'lmish jismoniy tarbiya darsini unumli tashkil qilish ustida olib borilayotgan ilmiy va uslubiy tadqiqotlar doirasi borgan sari kengayib bormoqda (I.G.Skachkov, 1993: V.A. Golomazov, V.D.Kovalev, A.G. Melnikov, 1976: Zuoza Kazevich, 1983: Yu.M. Yunusova, 2002: Yu.D.Jeleznyak, L.N. Slunskiy, 1989 va b.)

Bu borada olib borilayotgan tajriba va tadqiqotlarning natijalari alohida ahamiyat kasb etib, diqqatni o'ziga jalb qiladi. Chunonchi, I.G.Skachkov (1993) ning fikriga ko'ra haftasiga ikki marta o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darsi o'quvchilarning kundalik jismoniy yuklamasining 11% ni tashkil etar ekan. Agar dars har kuni 1 soatdan rejalashtirilsa ham kundalik jismoniy yuklama 33 % foizdan oshmas ekan.

Ushbu vaziyatni e'tiborga olib u jismoniy tarbiya darsining ko'p funksional variantini taklif etdi. Mazkur dars varianti bir darsni o'zida jismoniy tarbiya dasturidagi barcha vositalarni (gimnastika, engil atletika, sport o'yinlari turlari elementlarini) o'z ichiga oladi.

S.A.Aslaxanov jismoniy tarbiya darslarida jismoniy sifatlarni samarali rivojlantiruvchi xalq harakatli o'yinlarining hajmini nihoyatda ko'paytirish zarurligiga e'tibor qaratadi.

Aynan sport va harakatli o'yinlarni aksariyat o'z tarkibiga kiritgan jismoniy tarbiya darslarining yuqori samaradorligini isbot qiluvchi tadqiqotlar ko'لامи so'nggi yillardanjudakengayib bormoqda. (T.Usmomonxodjaev, F.Xo'jaev, 1992: L.V.Bilaeva, I.M.Korotkov 1979, A.I.Lisitsa, 1991: G.A.Furmanov, 1989: F.N.Nasriddinov, A.SH. bosimov, 1993: U. Boraboev, 2001: V.V.Kuzin, S.A.Polievskiy, 2000 va b)

Ushbu yo‘nalish doirasida tadqiqot olib borgan deyarli barcha olimlar umumta’lim o‘rta maktablarda o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari qanday turdan (engil atletika, gimnastika, voleybol, basketbol va h.z.) iborat bo‘lmisin dars mavzusiga moslashtirilgan harakatli o‘yinlardan foydalanish mashg‘ulotlarning samaradorligini ta’minlaydi degan xulosaga kelishgan. Maslan, A.G.Furmanov,1979: M.S.Bril,1980: M.A.Kurbanova, 1997 va boshqalarning fikricha maktab o‘quvchilari bilan voleybol bo‘yicha o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darsida ixtisoslashtirilgan harakatli o‘yinlarni qo‘llash nafaqat maxsus jismoniy sifatlarni unumli rivojlantiradi, balki voleybol malakalari texnikasini tez sur’atlar bilan shakllanishiga yordam beradi. Chunki voleybol texnikasiga harakatli o‘yinlar o‘yinlar yordamida o‘rgatish o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Demak, voleybol bo‘yicha o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darslarida o‘ziga xos harakatli o‘yinlarni tanlash va dars vazifalariga qarab ularni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya va sport millat genofondini shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalashda kafolatli omil sifatida borgan sari o‘quvchi yoshlarning kundalik turmush tarziga singib bormoqda.

1999 yil 27 maydagi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi 271-sonli qaroriga binoan ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari hajmini oshirilishi, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” kabi 3 bosqichli musobaqalar tizimini tatbiq etilishi, “Alpomish” va “Barchinoy” test sinovlarining joriy qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “O‘zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasini tuzish” va shu masala bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori kabi konseptual xujjatlar ushbu sohani, ayniqsa yoshlar o‘rtasida yanada jadalroq ommaviylashishiga keng huquqiy imkoniyatlarni ochib bermoqda.

O‘rta umumta’lim mакtab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quv rejaliari tarkibiga mustaqil fan sifatida kiritilgan voleybol darsi o‘quvchi yoshlarning jismoniy va funksional imkoniyatlarini oshirish, sog‘lig‘ini

mustahkamlash, hayotiy zarur malakalarni shakllantirish, maxsus sifatlarni tarbiyalash, texnik-taktik va o‘yin malakalariga o‘rgatish ma’naviy madaniy, ahloqiy va psixologik xislatlarni kamol toptirishda o‘ta muhim ahamiyatga egadir.

Jismoniy tarbiya darsining asosiy maqsadi “jismoniy madaniyat” va uning tarkibiy yo‘nalishlari (jismoniy tarbiya, sport, jismoniy va funksional tayyorgarlik, jismoniy sifatlar va hokazo) haqida dastlabki bilim berish, hayotiy zarur harakat malakalari va ko‘nikmalarni shakllantirish, asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalashdan iborat. O‘z salomatligi va jismoniy qudratini mustahkamlash o‘quvchi yoshlarning nafaqat shaxsiy ishi, balki bu mas’uliyat ularning jamiyat oldidagi burchi ekanligini ongiga singdirish o‘qituvchi tomonidan hal etiladigan muhim masalalardan biri bo‘lishi lozim. Ushbu maqsadga erishish yosh avlodni “katta” hayotga tayyorlash, bo‘lajak kasbiy faoliyatni samarali tashkil qilish, turmush qiyinchiliklarini engib o‘tish va O‘zbekiston qurolli Kuchlari safida harbiy xizmatni sharaf bilan ado etish imkoniyatini yaratadi.

Jismoniy tarbiya darsining vazifalari yuqorida qayd etilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda sog‘liqni mustahkamlash, umumiy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish, muayyan sport turi (voleybol)ga xos harakat malakalari texnikasiga o‘rgatish hamda sport intizomini shakllantirish, raqibini hurmat qilish hissiyotini uyg‘otish, iroda, diqqat va sezgirlik kabi xislatlarni tarbiyalashdan iborat.

Darsning tuzilishi va mazmuni. Voleybol bo‘yicha o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darsi, shu jumladan voleybol darsi 3 qismdan tashkil topadi.

1 qism – tayyorlov 8-10 daqiqa teng bo‘lib, o‘z ichiga sinfni tashkil etish (saflanish, navbatchi o‘quvchini o‘qituvchiga davomat haqida axborot berishi, dars vazifalari bilan tanishtirish), saf mashqlari, umumiy va maxsus mashqlarni kiritadi. Darsni tayyorlov qismida beriladigan mashqlar shu darsni maqsad vazifalarini echishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Tayyorlov mashqlari tana muvozanatini saqlash, qaddi-qomatni shakllantirish, yurish, yugurish, sakrash, kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalashga mo‘ljallanadi. Darsning tayyorlov qismi o‘quvchilar organizmini “qizitish” va uni funksional

jihatdan shu darsning asosiy qismiga tayyorlashdan iborat. Darsning ushbu qismini o‘tkazish shiddati dastlab sekin-asta oshirilib, shu qismni o‘rtasidan yana sekinlashtirilishi kerak.

Asosiy qism 25-30 daqiqa davom etadi. Mazkur qismda darsni asosiy maqsad va vazifalari echiladi. Texnik-taktik malakalar o‘zlashtiriladi. Buning uchun o‘rganiladigan o‘yin malakalariga oid taqlid va to‘p bilan bajariladigan mashqlar qo‘llaniladi. Malakalarga o‘rgatish va ularni shakllantirish yakka tartibda yoki kichik guruhlari va barcha o‘quvchilar ishtirokida amalga oshiriladi. Bu qismda o‘rgatish jarayoni sekin shiddatda, takomillashtirish jarayoni esa katta tezlikda kechishi lozim.

Yakuniy qism 3-5 daqiqa davom etadi. Bu qismning maqsadi o‘ta sekin shiddatda ijro etiladigan mushaklarni bo‘sashtiruvchi va taranglashtiruvchi mashqlar hamda milliy harakatlio‘yinlar yordamida charchoqni bartaraf etish, organizmning funksiyalari va ish qobiliyatini tiklashga qaratiladi.

Dars davomida jismoniy siftlarni tarbiyalash, harakat (texnik-taktik) malakalari texnikasiga o‘rgatish va ularni takomillashtirish turli pedagogik uslublar quyidagilardan iborat:

- tushuntirish;
- ko‘rsatish (namoyish etish);
- muayyan malakani qismlarga bo‘lib o‘rgatish;
- malakani to‘liq holda sekin va katta tezlkda o‘rgatish;
- qaytarish;
- o‘yin uslubi;
- musobaqa uslubi va hokazo.

O‘rgatish jarayonida, bundan tashqari, rag‘batlantirish va jazolash, ishontirish kabi usullar ham o‘rin oladi.

Har bir uslubni qo‘llashda o‘ziga xos vositalar (mashqlar)dan foydalaniladi.

Voleybol bo‘yicha o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya darsi yakunida, aksariyat hollarda, o‘quv o‘yini o‘tkaziladi. Bunday o‘yinlarni o‘tkazish davomida o‘yin

qoidalarini o‘zlashtirishga va hakamlik qilish sirlarini o‘rgatishga alohida e’tibor qaratiladi.

O‘rgatish va takomillashtirish jarayonida beriladigan vazifa, shu jumladan qo‘llaniladigan mashqlar “oddiydan murakkabga”, “o‘tilganidan o‘tilmaganiga” va “engilidan og‘iriga” kabi didaktik tamoyillarga rioya qilish shart.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O`zbekiston” nashriyoti,
2. БОЛАЛАРНИ ОИЛАДА СОГЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Eldor nurmatov Физическое воспитание, спорт и здоровье 4 (4), 37-39
3. Jismoniy tarbiya va ta'limdi innovatsion texnologiyalarning ahamiyati Eldor. Nurmatov Xalqaro ilmiy-amaliy kanferinsiyalar 1 (1), 370-371
4. mактабгача та'lim muassasalarida jismoniy sifatlarini tarbiyalashda harakatli o'yinlarni ahamiyati Eldor. Nurmatov  
<https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/manageIssues#backIssues> 1 (1), 35-
5. Talim mussasalarida o'quvchilar jismoniy tarbiyasining maqsadi Eldor. Nurmatov Muallim 2 (2), 64-67
6. Umumiy o'rta talim maktablarida jismoniy tarbiya darslarida voleybol o'yining tarkibiy tuzilishi  
Eldor. Nurmatov  
<https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/manageIssues#backIssues> 2 (2), 35-
7. JISMONIY MADANIYATNING INSON KOMILLIGINI O'STIRISHDAGI ROLI  
Eldor. Nurmatov  
<https://pshedu.jspi.uz/index.php/pshedu/manageIssues#backIssues> 4 (4), 35-

|  |     |
|--|-----|
| Ibragimov Alisher Karomatovich. O'QUV-TARBIYA JARAYONINI LOYIHALASHTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YO'NALISHLARI VA UNING IJTIMOIY AHAMUYATI.....       | 555 |
| Q. A.Abdujalilova. INTEGRAL TAYYORGARLIKNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA NAZORAT QILISH USULLARI .....   | 558 |
| М.Х.Тошев. ШАХМАТНИ ЎРГАТИШДА КОМПЬЮТЕР ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ КЎЛЛАШНИНГ ДИДАКТИК ЖИҲАТЛАРИ .....   | 560 |
| Ахмедова Сарвиноз Азатовна. БўЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИОН ВОСИТАЛАР АСОСИДА СПОРТ КОУЧИНГИГА ТАЙЁРЛАШ .....                           | 563 |
| Уткиров Нусрат Комилович. ВНЕДРЕНИЕ ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ СТУДЕНТОВ ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ .....  | 565 |
| Тураев Махмуд Мухамедович. ОРГАНИЗАЦИЯ ПРОЕКТНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ.....   | 567 |
| Sh.A. Xasanova. O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA KASBIY DIAGNOSTIKA YO'NALISHIDAGI INNOVATSİYALAR NG O'RNI .....                                    | 570 |
| Я.З.Файзиев. М.Юсупова. ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ СРЕДСТВАМИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА .....  | 572 |
| Эрнгитов Д.Х. , ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИ МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ЎҚИТИШНИ АХБОРОТ КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ..  | 573 |
| Yarashev Jamshid Razzoqovich. ERKIN KURASH BO'YICHA MURABBİYLARNING KASBIY KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI .....   | 576 |
| Musayev Otabek Qudratovich. JISMONIY MADANIYAT VA SPORT FANI O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH .....  | 578 |
| Azimqulov Bekzod Abdulatifovich, Kamardinova Shaxlo Baxtiyor qizi. O'QITUVCHILARNING O'QUV JARAYONINI TASHKILLASHTIRISHI.....  | 581 |
| O'zDTSU talabasi .....   | 581 |
| Nurullayev Jasurbek Otaxon o'g'li. JISMONTY TARBIYA O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINING YETARLI DARAJADA YUQORI EMASLIGINING AYRIM SABABLARI ..... | 584 |
| Ахмедов Фуркат Қўлдошевич, Олимов Алишер Исакович. ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҲАСИДА МУТАХАССИСЛАРНИ ТАЙЁРЛАШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ ВА ТАЛАБЛАРИ .....            | 586 |
| Махмудов Максуд Камолович. БўЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИСИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ФУНКЦИЯЛАРИ .....   | 589 |
| Sabirova Nasiba Rasulovna, Yusupov Komron Shuhrat o'g'li. MALAKALI SPORTCHILARNI TARBIYALASHDA PSIXOLOGIYANING O'RNI HAMDA AHAMUYATI .....                           | 591 |
| Азизова Рушен Исмаиловна. ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ .....   | 593 |
| Кравчук Василий Иванович, Условия эффективного повышения уровня физической подготовленности студентов вуза культуры .....  | 595 |
| Таушканова Юлия Александровна, АНИМАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯ КАК ЧАСТЬ ТУРИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ .....   | 597 |
| Umarov D.Kh. METHODOLOGY OF FULFILLING STUDENT GYMNASTIC QUALIFICATION REQUIREMENTS .....  | 601 |
| С.У.ИБРАХИМОВ, АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ АСОСИДА БўЛАЖАК СПОРТ МУРАББИYLARINI ГУРУҲ АЪЗОЛАРИ ОРАСИДАГИ ЗИДДИЯТЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ОМИЛЛАРИ .....                            | 603 |
| Жалолов Жононбек Жамил ўғли, Маъмуроев Баҳодир Бахшуллоевич, ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИСИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТИНИ ОШИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ .....                 | 604 |
| Новикова Тамара Александровна, Проектные технологии как средство формирования коммуникативной компетентности будущих учителей физической культуры .....              | 606 |
| Джураева Махасти Зокировна. ШАХСНИНГ СПОРТ ФАОЛИЯТИГА ҲИССИЙ-ИРОДАВИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ .....  | 608 |